

**ТОШКЕНТ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАР УНИВЕРСИТЕТИ
НУКУС ФИЛИАЛИ**

«Тасдиқлайман»
ТАТУ НФ ўқув ва маърифат –
маънавият ишлари бўйича директор
уринбасори
_____Х. Сейткамалов
«_____» _____ 2015 й.

**Intellektual
tizimlar**
фанидан
МАЪРУЗАЛАР МАТНИ

**Олий ўқув юртларининг
5521900 – «Информатика ва ахборот технологиялар»
йўналиши талабалари учун**



Нукус 2015

Тузувчи:

ассистент Бобожонов Э

Маърузулар матни ахборот технологиялари кафедра йиғилишининг 20__
йил «__» _____ -сонли баённомаси билан тасдикланди.

Кафедра мудири

Айтмуратов .

Маърузалар матни КИФ илмий-услубий кенгашида кўриб чиқилган ва
тасдиқлаш учун тавсия этилган. 20__ й «__» _____ -сонли баённома

Кенгаш раиси

Мундарижа

SO'Z BOSHI	4
SUN'IY INTELLEKT VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. SUN'IY INTELLEKT NIMA?	5
ANDROIDLAR VA ELEKTROMEXANIK ROBOTLAR.....	12
INTELLEKTUAL SISTEMALAR.....	17
MA'LUMOTLAR VA BILIMLAR.....	20
MANTIKEY PROGRAMMALASH TILLARI.	26
BILIMLAR BAZASI.	33
SUN'IY INTELLEKT SISTEMALARI SOXASIDAGI TADKIKOTLAR RIVOJI HAMDA XOZIRGI KUNDAGI AXVOLI	40
ADABIYOTLAR RO'YXATI	43

SO'Z BOSHI

Xozirgi paytda xisoblash texnikasini takomillashtiruvchilarning diqqat-e'tibori yetuk EXMlar yaratishga karatilgan. Bu, birinchidan, EXMda echiladigan masalalar sinfini, EXMning mavjud imkoniyatlarini va undan foydalanuvchilar ishtiyokini kengaytirish, ikkinchidan ulardan foydalana bilish, EXM va programmashtirish soxasiga mansub bulmagan EXMdan foydalanuvchilar alokasini soddalashtirishdir. Etuk EXMlar topshiriklarni kiritish va ijodiy jarayonni amalga oshirish, xakikiy (tabiiy) til surov-larini kabul kilish, axborotni belgi, tasvir, signal kurinishida kayta ishlash, EXMdagi bor bilimlarni YIRISH imkoniyatiga ega. EXMda joylashtirilgan etuk interfreys (odam bilan EXMning aloka vositasi programma yoki apparat kurinishida) komp yuter luratining bir kismi bilangina tanish bulgan insonlarni mashinada ishlashiga yordam beradi. SHuning uchun etuk EXMlarning kelajagi porlokdir. Sun'iy intellektning amaliy sistemalarini yaratili-shida ekspert sistemalar birinchi kadamdir. Ekspert sis-temalar bu tibbiyot, geologiya, fizika, kimyo kabi sox,alar x,akidagi turli xil axborotlarni EXM xotirasida sak-lovchi sistemadir. U nafakat biron bir dalil xakidagi axborotni foydalanuvchining suroviga etkazib berish, balki maslaxat berish, keragidan ortikcha uxshash xodisa-larni utkazib yuborish, uz xulosalarini asoslash, kasal-likni aniklash yoki texnologik jarayonni eng makbul yulini tanlash imkoniyatiga ham ega. Ekspert sistemalar xoxlagan soxa uchun moslab kurilgan bulib interpretatsiya, aniklash (diagnostika), loyixalash, rejalashtirish, boshkarish, kuzatish, turtilash, oldindan aytish kabi il-gari ekspert sistemalar yordamida echilgan masalalar ruyxatini tula tasdiklaydi. Xozirgi vaktida bunday sistemalarni yaratish — bilimlarni yaratish usuli bulib xizmat kilmokda. Bu bilimlardan shaxsiy EXMlar yorda-mida minglab kishilar foydalanmokdalar va kelajakda millionlab kishilar foydalanishlari mumkin.

SUN'IY INTELEKT VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

SUN'IY INTELEKT NIMA?

Sun'iy intellekt xakidagi tasavvur va bu soxadagi izlanishlar — «akliy mashinalar» ishlab chikarishga ilmiy yondoshish birinchi bulib Stanford universiteti-ning (AKSH) professori Djon Makkarti tashabbusi aso-sida 1956 yili tashkil topgan ilmiy tugarakda paydo buldi.

Bu tugarak tarkibiga Massachuset (AKSH) texnologiya oliygox,i «Elektronika va xisoblash texnikasi» kulliyotining faxriy professori Marvin Minskiy, «masalalar-ni universal xal kiluvchi» va «maytikiy nazariyotchi» intellektual (akliy) programmalar bunyodkori — kibernetik Allen N yuell va Karnegi-Mellen dorilfununining (AKSH) mashxur psixologi Gerbert Seyman, xisoblash texnikasining kuzga kuringan mutaxassislari Artur Semuel , Oliver Selfridj, Manshenon va boshka-lar kirar edilar. Aynan shu tugarakda «Sun'iy intellekt» tushunchasi paydo buldi.

Risolaning asosiy mazmuniga kirishishdan avval «sun'iy intellekt» (SI), umuman «intellekt» xakidagi tushunchani aniklab olishimiz kerak. Bu tushunchani oddiy koida asosida tushuntirish mumkindek tuyuladi, lekin biz buni kila olmaymiz. CHunki, xozircha «intellekt» va «SI» xakida biron-bir anik fikr yuk. Bu tushunchani turli fan soxalarida ijod kiluvchi olimlarning talkin kilishlari turlicha, fikrlashlarida yakdillik yuk. SHu sababli bu tushunchalarning mazmunini ukuvchiga tushuntirib berishga xarakat kilamiz.

«Intellekt» so'zi lotincha «intellectus» so'zidan kelib chikkan bulib, u bilish (aniklash), tushunish yoki faxmlash (akl) ma'nosini beradi.

«Intellekt» so'zini aniklovchi, psixologlar tuzgan uch-ta tushunchani (Katta sovet entsiklopediyasi va Vester-ning amerika luratidan olingan) keltiramiz. Bu tushun-chalar «intellekt» tushunchasi mazmunini aniklash uchun yordam beradi.

Intellekt — fikrlash kobiliyati, ratsional bilish va shunga uxshash. Umumiy xolda esa fikrlash, shaxsni akliy rivojlanishi sinonimi bulib xizmat kiladi.

Intellekt (akl) — uz xulkini sozlash yuli bilan xar kanday (ayniksa yangi) xolatga etarli baxo berish kobiliyati.

Intellekt — turmushdagi dalillar urtasidagi uzaro bogliklikni tushunish kobiliyati. Bu kobiliyat belgilan-gan maksadga erishishga olib boruvchi xarakatlarni ishlab chikish uchun kerak buladi.

YUkorida aniklangan «intellekt» tushunchasidan shun-day xulosa chikarish mumkinki, ya'ni intellekt fakat insonlarga tegishli va odam akliy kobiliyatining uziga xos ulchovidir. Psixologlar shunday maxsus usul-lar yaratdilarki, bu usullar yordamida tajriba orkali odamning intellektual (akliy) darajasini aniklash mumkin buldi. Natijada shu narsa aniklandiki, intel-lektning individual darajasi urtasidan surilishi (ORISHI) odamning fizik imkoniyatlari darajasi kabi-dir.

Agar urtacha akliy kobiliyat 100 ball deb kabul kilinsa, u xolda uta kobiliyatli insonlarda bu kursatkich 150, 180, xattoki 200 ballga etish mumkin. Amerikalik shaxmatchi, jaxon eks-chempioni Robert Fisherning bu kursatkichi 187 ball bulgan, XIX asr yarmida yashagan angliyalik mantikchi Djon Styuart Mill uch yoshidayok kadimgi yunon tilida gapira olgan va uning kursatkichi 190 ball-gacha borgan. SHuni kayd kilish lozimki, evolyutsiya davrida intellekt birmuncha bir tekis, inkilobiy ri-

vojlaniş davridan toki zamonaviy inson intellekti paydo bulgunga kadar bulgan davrni bosib utgan.

Intellektning evolyutsion rivojlanishi berilgan bos-kichdan birmuncha yukori printsiptial, a'lo darajadagi tashkil toptan boskichga utish bilan davom etadi. SHuning uchun jamiyatning turli rivojlanish boskichlarida yashagan insonlarning intellektini bir-biriga solishtirib bulmaydi.

«Sun'iy intellekt» tushunchasiga turlicha ma'no kiri-tish mumkin. Turli mantik va xisoblash masalalarini echuvchi EXMdagi intellektni e'tirof etishdan tortib, to insonlar yoki ularning kupchilik kismi orkali echila-digan masalalar majmuasini echadigan intellektual sis-temalarga olib boradigan tushunchagacha kiritish mumkin.

«SI» tushunchasi boshidan va shu kunga kadar olimlar-ning bu. tushunchaga bulgan munosabati va ularning «sun'-iy» so'ziga nisbatan kelishmovchiligi tufayli karshiliklarga uchramokda. Masalan, UzR FA Kibernetika institutining sobik, direktori, marxum akademik V. M. Glushkov «sun'iy idrok» so'zini kushtirnoksiz ishlatgan. UzR FA «SI» masalalari buyicha ilmiy igilish raisi akademik G. S. Pospelov fikricha, «SI» xakida xech kanday so'z bulishi mumkin emas, ya'ni xozir ham, yak,in kelajakda ham «uylaydigan mashina» bulmaydi. «SI» tushunchasini uzgartirish kech buldi, — deb yozadi u. Bu narsa injener, matematik, EXM va elektronika buyicha mutaxassislar, psixolog, faylasuflarni birlash-tiruvchi juda katta ahamiyatga ega bulgan ilmiy yunalish ekanligiga xech kimda shubxa yuk. U odamlarning maksadi — komp yuterlarning maxsus programmali va appa-ratli vositalarini yaratish. Komp yuterning kobiliyati ijodiy natijalarni berib turishdan iborat.»

«SI» tushunchasini anik ta'riflash shuni takozo ki-ladiki, bu ilmiy yunalish oyokka turish va rivojlanish boskichidadir. Bugungi kunga kelib, shu narsa ma'lum buldiki, «SI» terminiga tabiatdagi jarayon va xodisa-larni urganish (tadkikot kilish) da insondagi ayrim intellektual kobiliyatlarni texnik jixatdan mujas-samlashtirgan umumiy tushuncha deb qaramoq lozim.

Muloxaza mantiki

Insonni er yuzidagi boshka tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi asosiy xususiyat — bu uning fikrlash kobiliyatiga ega ekanligidir. Inson kanday fikrlaydi, bu davrda uning miyasida kanday jarayonlar kechadi va bu jarayonlarni kanday modellashtirish mumkin? Insonning aqliy qobiliyatiga uxshash sun'iy sistema yaratish mumkinmi? SHu va shu kabi fikrlash jarayoni bilan bog'lik, kup masalalar hama vaqt olimlarni uylatib kelgan. Fikrlash jarayonini urganish kadim zamonlardayoq boshlangan. SHundan beri doimiy ravishda insonning ichki kechinmalarini bera oladigan usullarni izlash va rivojlantirish ishlari olib borildi. SHunga qaramasdan shu paytgacha idrok va intellektuallik deyarli urganilmagan va tushunarsiz bulib kolmokda.

Insonning murakkab maksadga yunaltirilgan fikrlash jarayoni kanday kechadi? Bu jumboqni echishga birinchi bulib miloddan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon mutafakkirlari qul urishdi. Usha kadimgi zamonda YUnonistonda kiziquvchan odamlar ommasini uziga tuplagan ommaviy tortishuvlar keng tus olgan edi. Tortishuvlar uchun kup xollarda erkin, umumiy tarzdagi mavzular tanlab olinardi.

Tortishuvlarda tortishuvlarning shunday shaklini uylab topishga xarakat kilinar ediki, bu tortishuvlar ularni tug'ri ishlatganda dastlabki tutgan urnining xaqiqiyligi buzilmasdi. Bu erdagi xaqiqat biron bir mutlok xolda tushunilar edi.

Ko'pincha oldindan ma'lum bir sofistik muloxazalar ataylab buzilgan mantik, konuniyati aososida yolg'on dalillar ishlatilganda, yolg'on axvolning xaqiqiyligiga tinglovchilarni ishontira olish kurib chikilgan. Sofistik muloxazalar yashirin xatolarga egaki, ular mantik muloxazalarining asosiy konuniyatlarini buzadi. Lekin mantikking uzi, echilma-guncha va umumlashgunga kadar, ularni oydinlashtirish mumkin emas edi.

Kupincha tortishuvlarda anik ifoda kilish utkirla-shib, musobakaning boshka katnashchisi javoblari aso-sida savollar zanjiri tuzish usuli ishlab chikilgan edi. SHu tortishuvlar sharofati bilan yangi fanga — sillogizm faniga poydevor yasaldi. Sillogistika yunoncha «sillogistikos» so'zidan kelib chikkan bulib, muayyan «bir fikrga kelish» demakdir.

Sillogizm yunoncha «syllo-gismos», ya'ni sub'ekt (ega) va predikat (kesim)ni umumiy (urta) termin orkali birlashtirish demakdir. Sillogizmning oxirida tushunchalarni tutashtirish ta'minlanadi. Masalan «Hamma metallar uzidan elektr tokini utkazadi. Mis — metall, demak mis — elektr utkazuvchan».

Bunday tortishuvlarning boshlovchilaridan biri Sukrot bulgan. SHuning uchun bu tortishuvlar «Sukrot suxbatlari» degan nom olgan. Sukrotdan xech kanday kulyozma kolgan emas. Sukrotning xayoti va ta'limoti xakidagi ma'lumotlar asosan uning shogirdlari bulgan Kse-nofont va Platonning kulyozmalari orkali etib kelgan. Ular tortishuvlarni uzicha tuldirish bilan mantikiy muloxazalarni rivojlantirishga uz xissalarini kushganlar.

Keyinchalik saroy tabibining ugli, Platonning shogirdi, Aleksandr Makedonskiyning ustozlari Arastu (miloddan avvalgi 384—322 yillar) uzidan oldingi xaki-katni aniklash maksadida ma'lumotlarni jamlagan va sillogizm nazariyasini yaratgan. Bu nazariya tufayli bekamu kust ochik munozara kilishga imkon tugilgandi. Insoniyat tarixida birinchi marta inson tomonidan yaratilgan xar tomonlama tugal ili edi. Bu vokea odam-zod tarixida yagona bulib, bunday xol boshka takror-lanmagan. Arastu uz zamonasiga etarli bulgan butun bilimlarga ega edi. U uz ukuvchilariga ukigan ma'ruza lari (Afinadagi Likey maktabida) keyinchalik 150 jildga jamlangan. Bu bir inson tomonidan yaratilgan fakatgina ilm xakidagi Kobusnoma emas, balki axlok-shunoslik, siyosat, she'riyat, notiklik tugrisidagi kobus-noma hamdir. Arastu 323 yili xudosizlikda ayblangan, kochgan va darbadarlikda vafot etgan.

Arastuning sillogistika fani yashovchan bulib, xozirgi matematik mantik fanining rivojlanishiga asos sol-gan va fakat XIX asrga kelib rivojlantirilgan. Sillogizm nazariyasining asosiy tushunchalarini kurib chikamiz.

Klassik mantikda sillogizm (yoki xulosa) ikki yul: deduktsiya va induktsiya yuli bilan kuruladi. Zamona-viy mantikda esa abduktsiya yuli bilan ham kuruladi. Bulardan fakat deduktsiyagina kat'iy mantik (ka- . tegoriyali sillogizm) asosida chikariladi. Induktsiya va abduktsiya bunday kat'iylikka ega emas. SHuning uchun induktsiya va abduktsiyalar extimollar sillogizmi deyiladi.

Sillogizmning klassik misoli sifatida kuyidagi s,e-ma xizmat kiladi.

Katta dalil (asos): hamma insonlar ulimga maxkum.

Kichik dalil: Gay YULiy TSezar — inson.

Xotima: Gay YULiy TSezar ulimga maxkum.

Deduktsiya — bu katta va kichik dalillardan xotimani Xosil kilishga imkon beruvchi xulosa. Bu mantikan muloxazaning anik va tushunarli bulgan oddiy sillogizmi bulib, muayyan bir fikrga kelishning bir kurini-shidir. Hammavakt ham deduktiv muayyan bir fikrga kelish xakikat bulavermaydi. Arastuning xizmati shundaki, u deduktiv muloxazalarda katta va kichik dalillar ishonchli bulganda, xulosa doimo rost bu-lishi shartini anik ta'riflay olgan. Sillogizm deduktiv muayyan bir fikrga kelishning shunday yozilish shaklidir, unda ikkita rost dalillar asosida yolg'onligi va rostligi xakida bir marotaba javob be-radi (yukoridagi misolga karang).

Induktsiya — kichik dalillar va xotimadan katta da-lillarni olishdir. Buni oddiy misolda tushuntira-miz:

Katta dalil: balik, — so'zishni biladigan tirik mavjudot.

Kichik dalil: forel — balik.

Xotima: Forel — so'zishni biladigan tirik mavjudot. Bu keltirilgan misoldan katta dalil sifatida shuni aniklashimiz mumkinki, ya'ni karas , karp, lesh, forel singari balik turlari so'zish kobiliyatiga ega ekanli-gidan kelib chikib, balik—so'zishni biladigan tirik mavjudot degan xulosa chikaramiz. Bunday xulosa isbot-lanmasligi mumkin, chunki bizga baliklarning hamma turi ma'lum emas, kuruklikda xarakatlanuvchi baliklar ham bor. Xakikatan ham tabiiy kuzatishlar asosida bilimlarni tuplash katta dalillarning turirligi va is-botlanishini yanada oshiradi.

Abduktsiya — katta dalil (asos) va xotimadan kichik dalilning olinishi. Masalan ba'zi bir tirik mavjudot -lar so'zishni biladi, bunda muayyan bir fikr aytila-di, ya'ni bu tirik mavjudot — balik, biroq juda kup xayvonlar suvda so'zsa ham, masalan tyulen , timsox, del fin, g'oz, urdak — ular balik emas. SHunday ekan, bu xulosa so'zsiz isbotlangan deyish notug'ri.

Arastu davrida induktiv usullardan muvaffakiyatli foydalanilmagan. Bu muayyan bir fikrga kelish usulining moxiyatini anik tushuntirish sharafiga angliya-lik faylasuf Frensis Bekon muyassar bulgan. Arastu sillogistikasidan farkli ravishda Bekonning asarlarida induktiv usul kat'iy nazariya bulmagan. Bu usulni kat'iy asoslash xanuzgacha tugallanmagan. Buni shunday tushuntirish mumkinki, induktiv mantikka extimollar nazariyasi, matematik statistika va bir kator fanlar bilimi hamda nazariyasi kerak bulganki, Bekon davrida bunday fan soxalari tula shakllanmagan edi.

Mantik xakidagi muloxazalarni jamlab, shuni aytish mumkinki, mantik asosan tasdiklarni asoslash yullari-ni aniklash, ya'ni ma'lum dalillarga asoslanib anik xulosa chikarish mumkinligini isbotlash usullari bilan ish kurishdir.

Matematik mantik.

Arastuning sillogizmi matematik asosga birinchi bulib irlandiyalik matematik va mantikchi Jorj Bul (1815—1864) tomonidan kuyildi. Jorj Bulni mantik, matematik taxlil, extimollar nazariyasi, B. Spinozaning axlok nazariyasi, Arastu va TSitseronning falsafiy ishlari juda kiziktirgan. «Mantiknig matematik tax-lili» (1847), «Mantikiy xisoblash» (1848), «Fikrlash konuniyatlarini izlash» (1854) ishlarida u matematik mantik assoslariga poydevor kuydi. Uning kizlari ham juda mashxur bulganlar. Kizlaridan biri, muta-xassislar fikricha, turt ulchamli geometriya

soxasida muxim yangiliklar yaratgan, ikkinchi kizi esa kimyo fanlari professori bulgan. Kichik kizi Lilian Etel polyak olimi Voynichga turmushga chikkan, u mashxur «Suna» romanini yozgan. Bul algebrasi xozirgi kunda matematik mantik, programmalashtirish va shu bilan borik bulgan boshka soxalarda muxim ahamiyat kasb etmokda.

Bulning asosiy xizmatlaridan biri shundan ibrrat-ki, u birinchi bulib deduktiv sistemani ba'zi bir umumiy matematik ob'ekt sifatida ifodalagan hamda unga xisoblash (aniklash) tushunchasini kiritgan. U xisoblashning uch turini kurib chikkan:

«sinf» (tur)lar-ni xisoblash, «muloxaza»larni xisoblash va «munosabat» larni xisoblash. Zamonaviy matematik mantikda fakat Bulning «muloxaza»larni xisoblashi koldi, kolgan ikki xisoblashlar xisoblash predikatiga aylandi. Mayda taf-silotlarga e'tibor bermagan xolda matematik mantik-ning elementar asoslarini tushunarli xolda bayon etamiz.

Fikr bildirish' (muloxaza) deganda shunday darak ran tushuniladiki, unga rost, yolg'on ,yoki oxir okibatda xech bulmaganda shunga (rost yoki yolg'on) uxshash izox berish mumkin. Uchinchisi berilmagan. Bu xolat — uchinchisini uchirish (yukotish) konuni deyiladi. Kuyida fikr bildirishga (muloxazaga) uchta misol keltiramiz:

1.Abdulkosim Firdavsiyning «Rustam va Suxrob» poemasi «SHoxnoma» epopeyasiga (katta epik asariga) kiradi.

2.Uzbekistonda fakat uzbeklar yashaydi.

3.Ba'zi bir olimlar shunday muloxaza yuritadilarki, inson miyasida xotirani tashkil kilishning golografik printsipli ishlatiladi.

Birinchi fikr bildirish — rost, ikkinchisi — yolron, yashayotgan xalklarning savol-javobi asosida yigilgan statistik ma'lumotlarning guvoxlik berishicha Uzbekistonda yuzga yakin millat xalklari yashaydi. Uchinchii fikrlash buyicha buni rost yoki yolg'on deb aytish kiyin, chunki bu xozirgi vaktga kadam ilmiy tajribada tasdiklanmagan.

Birok hamma darak gaplar ham fikr bildirish degani emas. Masalan, «Kukatlardagi tonggi shabnam kuyosh nuri ta'sirida kaxrabo kabi yaraklaydi» gapi fikr bildirish (muloxaza) emas, bu jumlanii tuzish uchun shoirona kalbga ega bulish kerak. Buni ba'zilar tasdiklashlari mumkin, boshkalar esa shabnam tomchisini kaxraboga uxshatishni umuman urinsiz deyishlari mumkin, ya'ni uxshash tasdiklashlar ba'zilar uchun rost, boshkalar uchun yolron. Formal mantik, doirasida shunga uxshash tasdiklashlarni fikr bildirish (muloxaza) ni xisoblash deyiladi.

Fikr bildirishni xisoblash formal sistemalar kuri-nishida, ya'ni kuyidagi turtlik kurinishida beriladi:

$F=(T, L, Q, R)$, G —bu erda T — kichik latin xarflari bilan belgilana-digan elementar fikr bildirish tuplami. Bunday elementlarga misol kilib, biror bir alfavitdagi xarf-larni yoki bolalar konstruktoridagi detallarni oli-shimiz mumkin. Agar bizga kerakli bulgan element T — tuplamda bulsa, u xolda uni shu tuplamdan olish mumkin. Bir elementni ikkinchisidan farklash uchun ularni takkoslash kifoya.

L — sintaktik koidalar tuplami bulib, uning elementlari yordamida T — tuplamning elementlaridan tur-ri tuzilgan formulalar kuruladi. Masalan, alfavitdagi xarflardan so'zlar, gaplar, tekstlar (uni xosil kilish uchun maxsus belgilar, ya'ni tinish belgilari va ochik joy koldirish kerak) tashkil topadi.

Q — elementlari aksioma deb ataluvchi turri kuril-gan formulalar tuplami. Mantikda aksiomalar tuplami sifatida odatda umumiy yoki aynan xakikat bulgan tugri kurilgan formulalar majmuasi olinadi.

Va nixoyat R xulosa chikarish koidalari tuplami bulib, ular yordamida Q tuplam elementlaridan yangi, turri kurilgan formulalar (teoremalar) olinadi.

Fikr bildirishni xisoblash (aniklash)da xar bir turri kurilgan formula — fikr bildirish (muloxaza)dir. Bu muloxaza rost yoki yolg'on bulishi mumkin. Masalan: «Rustam ToshDUning abiturienti, u yakinda talaba buladi», degan muloxaza rost yoki yolg'on bulishi mumkin. Bu muloxazaning rost yoki yolg'on bulishi Rustamning dorilfununga kirishiga boglik.

«Hamma gozlar ok buladi» degan fikrning yolg'onligi ayon, chunki kora rangli rozlar ham buladi.

Mantikan borlanishlar yordamida shunga uxshash elementar fikrlashlardan birmuncha murakkabrok, fikrlash-lar xosil buladi. Ular ham ikki xil — «rost» yoki «yolg'on» kiymatlarni kabul kiladilar. Bunday bogla-nishlar sifatida kuyidagilar ishlatiladi:

kon'yuktsiya («VA») — L

diz'yunktsiya («YOKI») — u

inkor kilish («YUK,») —

impilikatsiya (AGAR BUNDAY BULSA — U XOLDA) — $\rightarrow$ -, yordamchi belgilashlar:

chap kavs — (

ung kavs —)

vergul —

Xakikiy xil konstruktsiyasi hamda mantikan boglovchi belgilar L , V , $\sim$ va x orasida ba'zi bir borlanishlar mavjud.

Masalan:

Rustam maktabni oltin nishon bilan tamomladi. Texnika oliy ukuv yurtiga kirish uchun u suxbatdan utishi va fizika yoki matematika fani buyicha buladigan imtixonidan a'lo baxo olishi kerak.

Bu misoldan elementar fikrlashlarni ajratamiz: a — «Rustam maktabni oltin nishon bilan tamomladi», v — «Texnika oliy ukuv yurtiga kirish uchun unga (Rustamga) suxbatdan utish etarli», s — «Texnika oliy ukuv yurtiga kirish uchun unga (Rustamga) matematika-dan a'lo baxoga imtixon topshirish kerak», d — «Texnika oliy ukuv yurtiga kirish uchun u (Rustam) fizi-kadan a'loga imtixon topshirishi kerak». Kavslar ichiga tekstda berilmagan sub'ekt ismi kiritilgan. YUkorida keltirilgan tekstning umumiy mantikiy tuzilishi kuyi-dagi kurinishda bulishi mumkin: (a VA v (o YOKI d)). Tekstda boglovchilar (VA, YOKI) katta xarflar bilan ajratib kursatilgan. YUkorida keltirilgan borlovchi-larni ishlatib, kuyidagicha yozish mumkin: (a L v) (cV d)

Mavjud moe koidalar yordamida fikrlashlar ustida algebradagi ayiruv, kushuv va kupaytiruv amallari ka-bi amallar bajariladi. Fikrlashlar ustida amallar bajarishga imkon beruvchi sodda, oddiy koidalarni keltiramiz:

L — mantik belgisi. Tarkibiy ifoda $S=A \vee V$, A va V tasdiklar bir vaktning uzida xakikiy (rost) bulsa, xakikiy (rost) buladi degan mazmun beradi. Aks xolda u yolron degan mazmunni beradi. Masalan: Xavo ochik — bu kor, yomrir yogmayotgan payt.

V — mantik belgisi. Agar A yoki V, yoki bir paytning uzida A va V rost bulsa, $C=A \vee V$ tarkibiy ifoda rost buladi. Bir vaktning uzida ham A, ham V yolgon bulsa, $A \wedge V$ tarkibiy ifoda ham yolron buladi. Masalan: Eringarchilik — bu yomgir yoki kor yogayotgan payt.

$\sim$ — mantik belgisi. Bu belgi boshka belgilardan farkli ravishda bir fikrlashdan boshka bir fikrlashni xosil kiladi. Bu bitta fikrlash yuzasidan kilinadigan tanxo amaldir. Formal mantikning kolgan amallari kamida ikki xil fikrlashni talab kiladi. $S=\sim A$ ifodasi, A rost bulganda yolgon va rost, kachonki A yolron bulsa. Masalan: agar A «xavo ochik» deb kabul kilin-sa, u vaktida $\sim A$ «xavo bulut» ligini bildiradi.

$\rightarrow$ — mantik belgisi. A yolron yoki A va V bir vaktida rost bulganda $S=A \rightarrow V$ tarkibiy ifoda rostdir. Bu koida $C=\sim A \vee B$ ifodasiga tula ekvivalentdir. Bundan kelib chikib ($\rightarrow$) asosiy belgi xisoblanmaydi. Lekin $A \wedge V$ ifodasi tabiiy tilda «Agar A bulsa V buladi» jumлага teng kuchli bulgani uchun $\rightarrow$ belgisini asosiy belgilar soniga kiritish mumkin. Xakikatda ham A va V rost xisoblansa, bunda $A \rightarrow V$ rost va «Agar A bulsa V buladi» sharti ham rost. Agar A rost bulmasa, tabiiy tilda «Agar A bulsa V buladi» shartiga kat'iy aniklik kiritilmaydi va shuning uchun bu ifoda noanik bulib koladi. Mantikda bunday noanikliklarning mavjudligi nokulaylik turdiradi, shuning uchun hamma mavjud xodisalarda S tarkibiy ifodasi oldindan aniklanadi. Odatda $\rightarrow$ belgisi «jalb kilmok (tortmok)» degan ma'noni bildiradi. Kuyida kursatilgan bog-lanishlar uchun rostlik jadvali keltirilgan:

ALV AVB

yolgon yolron rost yolgon yolgon rost

yolron rost rost yolron rost rost

rost yolron yolron yolgon rost yolron

rost rost yolgon rost rost rost

Fikrlashlarni xisoblash jarayonida hamma xolatlar-da ham deduktiv muloxazalar yozilavermaydi. U etarli ma'noga ega emas. Bu kamchiliklar predikatlarni xisoblash π bilan tulyadirilishi mumkin.

Predikat deganda uzgarmas yoki uzgaruvchilardan tarkib topgan ayrim boglanish tushuniladi. Predikatlar bir urinli va kup urinli buladi. Bir urinli (unar) predikatlar anik ob'ektlar yoki ob'ektlar sinfining xususiyatini tasvirlaydi. Ular $F(x)$ kurinishida yozi-ladi, bu erda predikat belgisi F xususiyatni belgilaydi, predmet uzgaruvchi belgi x-ob'ektdir. Ob'ekt x F xususiyatga egami yoki yukligiga boglik ravishda ikki xil kiymatni, ya'ni «rost» va «yolgon»ni kabul kiladi. Unar predikatga «komp yuter zarur» degan tasdik misol bula oladi. Bu erda F «uta zarur» xususiyatli ma'noga, x uzgaruvchi esa «komp yuter» ma'nosiga ega.

Kup urinli predikatlar (binar, ternar va shu kabi-lar) guruxlar orasidagi mavjud alokalarni yozish uchun xizmat kiladi. Masalan «x soni u sonidan ortik» degan tasdikni binar predikati $Q(x, u)$ bilan yozish mumkin. $Q(x, u)$ predikati, x va u sonlari uchun $x > u$ sharti bajarilsa rost, teskari xolatda esa yolgon buladi.

Predikatlarni xisoblashda fikrlashlarni xisob-lashdagi amallar ishlatiladi. Sintaksis koidalar, ak-siomalar va birinchi tartibli predikatlarni xisob-lashni

xulosalovchi koidalar fikrlashni xisoblashga moe tushuvchi koida va aksiomalarni uzida tula mujas-samlashtiradi.

Predikatni xisoblashda ikkita kvantor (belgi): umumiylik va mavjudlik kvantorlari ishlatiladi. Birinchi belgi V , ikkinchisi 3 bilan belgilanadi. Bu belgilar lotin alfavitidagi teskari ugirilgan A va E xarflaridan xrsil bulgan. V belgisi «hamma uchun» degan ma'noni bildiradi. V belgisi esa «mavjud» ma'-nosini bildiradi, $3 \times F(x)$ yozuvi esa «SHunday x mav-judki, unda $F(x)$ rost» tasdikiga teng kuchli buladi.

Kvantorlardan foydalangan xolda «YApon dorilfuni-nini Tamomlaganlar uch tilda ukishlari mumkin» degan gapni kuyidagi kurinishda kursatish mumkin:

$V(x)$ (yapon dorilfununini tamomlagan (x) ->- uch til (x)), bu erda x — yapon dorilfununini tugallagan, «uch til» ni esa « x uch tilda ukiy olishi mumkin» deb izoxlash mumkin. «YApon dorilfununini tamomlovchilar-ning ayrimlari uch xil tilda uk,iy oladilar» degan gapni kuyidagi kurinishda kursatish mumkin:

$3(x)$ (yapon dorilfununini tamomlagan (x) ->- uch til (x)).

YUkorida aytilgan muloxaza yuritish mantiki va matematik mantik xakidagi fikrlarni umumlashtirib, man-tikiy konstruktsiya tushunchasini oddiy tilda fikr yuritish yoki xulosa chikarish deb aytish mumkin buladi. Mantik, fani shunga uxshash konstruktsiyalarni kurishni va uni kurish jarayonida yakkol, yashirin ziddiyatlarni yuko-tishni urgatadi. Mantik, shuningdek murakkab xulo-salarning tarkibiy kismolari «rost» yoki «yolgon» ligidan, ularning ham «rost» yoki «yolron»ligini keltirib chikarish uchun imkon beradi. Insonda sodir buladigan ichki jarayonlarni (xususan fikrlash bilan boglik bulgan jarayonlarni) idrok kilish (imitatsiya) usullarini izlash va rivojlan-tirish boskichlarini kuzata turib shunday xulosaga kelish mumkinki, modellashirishga fakat turri (xakikiy) xarakterga ega bulgan muloxazalargina buysunadi va ayrim formal sistemalar doirasida amalga oshiriladi. Bu yunalishda birmuncha yutuklarga ham erishilgan.

ANDROIDLAR VA ELEKTROMEXANIK ROBOTLAR.

Android deb sun'iy (mexanik) odamchalarga aytiladi. «Android» so'zi lotincha «andros» so'zidan kelib chikkan bulab, erkak, er ma'nolarini beradi. Inson yoki boshka tirik mavjudotlarning tashki kurinishi va funktsional imkoniyatlari buyicha mexanik mavjudotlarni loyixalash va tayyorlash XVIII asrda boshlangan. Bu davr mexani-kaning «oltin asr»i bulgan. CHunki usha davrda xar xil kichkina (miniatyura) va moxirona yasalgan (murak-kab) asboblar, musika kutichalari, mexanik odamchalar va ajoyib «tirik» mavjudotlar ixtiro kilingan. Bu maxsulotlarning ijodkorlari odatda soatsoz bulganlar. Ular bu vaktga kelib uz mutaxassisliklari buyicha hamma nozik tomonlarni uzlashtirib, uzlarining bor bi-limlarini androidlar tayyorlash (yaratish)ga barishla-ganlar.

XVIII—XIX asrlarga oid yigirmaga yakin androidlar ma'lum. Eng mashxurlari frantso'z mexanigi Jak de Vokanson va SHveytsariya ustalari — ota-bola P er va Anri Drolar tomonidan yaratilgan androidlardir. P er Droning «nusxa kuchiruvchi» va Jak de Vokansonning «naychi» ijodlari juda yuksak maxorat bilan ishlangan.

Jak de Vokansonning «naychi» si tashki kurinishidan oddiy odam singari kurinishda bulib, nay (fleyta) ni oxista lablariga olib kelgan xolda instrumentning xar

xil teshiklarini barmoklari bilan tanlab bosib uz repertuaridagi un ikki oxangdan birini chalar edi.

P er Droning «nusxa kuchiruvchi»si tashki tomondan stolni oldida utiruvchi olti yoshli kizchaga uxshar edi. U «ROZ pero»sini siyoxdonga tirishkok xolda botirar va chiroyli kilib xarflar, so'zlar yozardi va xatto itni rasmini ham chizar edi. Bunda u boshini bir tekis sarak-sarak kilar va kul xarakatiga moe ravishda kuz kovo-RINI tushirar edi. Usha asrning tomoshabinlari inson kuli bilan yaratilgan bu «tirik mavjudot»ni kurib lol kolganlar.

1774 yili Parijdagi kkgazmada P er va Anri Dro-larning uch androidi: «nusxa kuchiruvchi», «raem chizuvchi» va «musikashunos»i namoyish kilinadi. Keyinrok Anri Dro Ispaniyaga ketadi, u erda unga zafar bilan birga xavf ham bor edi. Ota-bola Drolarning «afsunkor tajribalari»dan ispan sud-politsiyasi kupdan beri noro-zi bulib yurgan edi. Uni ushlaydilar va kamaydilar. Anri Droning androidi xozirgi vaktida Frantsiyaning Nevshatel shaxridagi nafis san'at muzeyida saklan-mokda. X1X_^{asr}ning boshiga kelib androidlar urnini yukori texnik imkoniyatlarga ega bulgan elektromexanik robot-lar egalladi. «Robot» termini birinchi bulib chex yozuvchisi Karel CHapekning 1920 yilda yozgan R.U.R. («Rassum universal robotlari») p esasida kullangan. Bu so'z «robot» degan chex so'zidan olingan bulib, odamzodga uxshab xarakat kiluvchi mashinani anglatadi. P esaning kaxramonlai tashki kurinishi buyicha odamga uxshagan mexanik odamlar bulib, fizik va intellektual tomondan odamdan ustun edi. K. CHapek ularni «robotlar» deb atadi. Bu so'z «android» atamasini sikib chikarib («android» so'zi fakat utgan zamon mexanik kugirchoklarini atalishida sakla-nib kolgan), dunyoning hamma tillariga singib ketdi.

Dunyoda birinchi robot 1927 yilda yaratilgan. Bu amerikalik muxandis Dj. Vensli tomonidan loyix,a-lashtirilgan va Butun dunyo kurgazmasida namoyish kilingan «Televoks» roboti edi. «Televoks» robot kullari bilan xarakat kila olar, oyokka tura olar va magnitofon yordamida bir nechta iboralarni ayta olar edi. Bular-ning hammasini androidlar xarakatidan farkli ularok, kat'iy (uzgarmas) programma buyicha emas, balki uzining konstruktori kursatmasi buyicha bajarar edi. Robotga topshiriklar xushtak yordamida kiritilgan. «Televoks» ommaviy tarzda namoyish kilinganidan sung «ishga» solib yuborildi, ya'ni uni N yu-Yorkdagi osmon upar uylardan birining vodoprovod shoxobchasiga navbatchi vazifasiga «tayinlashdi». Uning zimmasiga sistemadagi .suvning satxi va nasoslar ishini kuzatib turish yuklandi.

SHundan sung kizikarli texnik echimlarga ega bulgan elektromexanik robotlarning bir butun avlodi paydo buldi. Lekin biz bu robotlar tugrisida gapirmaymiz, chunki maksadimiz «sun'iy intellekt»ning fan bulib oyokka turish yulini karab chikishdan iborat.

Keyinchalik mikroprotssessor texnologiyaning rivojla-nishi natijasida elektromexanik robotlar urnini elektron robotlar egalladi. SHunday robotlardan ikkitasi xususida so'z yuritamiz. Birinchi robot «Universal» Osaka shaxrida (YAponiya) Butun dunyo kurgaz-masida namoyish kilindi. Robot radio orkali berila-digan 27 topshirikni bajarardi: u yuradi, boshi va kullari xarakat kiladi, musikani «tushunadi» va uning oxangiga uynaydi va xokazo. Ikkinchi robot «Demonstrator» («Namoyish kiluvchi») Ukraina Fanlar akademiyasi institutlaridan birida bor. Bu robotning ichiga

sun'iy olmos ishlab chikaruvchi laboratoriya kurilmasi joylashtirilgan. Robot oddiy grafitdan sun'iy olmos ishlab chikarish texnologiyasini ommabop kilib tushun-tirib bera olgan. Ma'ruza paytida robotning ogziga grafit parchalari solingan, robot esa jagi bilan uni ezgan va kup utmay uning uzi maxsus teshigidan tayyor bulgan olmos kristallni olib bergan. Bu namoyish katta samara bergan.

YUkorida aytilgan fikrlarni umumlashtirib, shuni tasdiklashimiz mumkinki, android va birinchi robotlar insonning xarakat va ta'sir kilish soxasidagi imkoniyatlarini modellashtirishda birinchi urinish bulgan. Ular xozirgi zamon robotlarining asoschisi bula olmadi. Bunga eng oddiy intellektning yukligi sababdir. Bu nimada ifodalangan? Bu, birinchidan, tashki muxit bilan android (robot)lar xarakati urtasida teskari alokaning yukligi hamda bu tashki uzgaruvchan muxitga moslanish kobiliyatining yukligi bilan ifodalanadi. Bular maxorat bilan yasalgan uyinchoklar edi, ularning xarakati kat'iy programmalashtirilgan edi. Masalan, «Nusxa kuchiruvchi» android hamma vakt oldindan belgi-langani jumlar tuplamidan birini yozardi. Agar uning siyoxdonida siyox bulmasa x,am u siyox,donga perosini tikishni va kogoza pero bilan (perosida siyox, bulmasa ham) yozishni davom ettirardi edi. «Naychi» android esa, agar uning nayi urniga xuddi nayga uxshash ulchamda dumalok yogoch kuyilsa ham uzining oxangini uynay berardi. Birinchi robotlar androidlar-dan deyarli farklanmasdi. Ular uzlariga xos xarakat-larni (tashki muxit ta'sirida buladigan xarakatlarni emas, balki topshirik signallari yordamidagi xar xil ketma-ketlikdagi xarakatlarni) bajarardilar. SHunday bulsa ham, android va elektromexanik robotlarni yaratishga ketgan urinishlar zoe ketmadi. Bunday uyinchoklarni yaratuvchilar antropomorf (odamga xos) xarakatlarga mexanik uxshatish imkoniyati turrisidagi masalani ijobiy xal kilganlar. Bu ishlarning nati-jalari biomexanika (odam xarakati nazariyasi) rivoj-lanishida katta rol uynagan, ya'ni insonlar uchun protezlar yaratshpga imkon bergan.

Androidlar kuli inson tomonidan yaratilgan birinchi manipulyatorlar sanalgan. Xozirgi paytdagi manipulyatorlar kanchalik mukammal bulmasin, ular bilan mexaniklarning «oltin asri» — ning ajoyib ijodkorlari tomonidan yaratilgan manipulyatorlar orasida genetik uxshashlikni oson kurish mumkin.

SHuni aloxida kayd kilish kerakki, robot-android-larning ijodkorlari xozirgi zamon robotlari paydo bulishi uchun imkon yaratganlar.

Robotlar.

Xozirgi zamon robotlari rivojlanishning uch boski-chini bosib utdi. Ularning birinchi avlodi program-mali robotlar, ikkinchi avlodi — «xis kiluvchi» robot -lar yoki moslangan (adaptiv) robotlar, uchinchi avlodi esa intellektual robotlar deb ataladi.

Programmali robotlarning xarakterli belgisi — bu uning oldindan berilgan anik xarakatlarni bir xil tarzda takrorlay olishi. Bunday robotlar manipulyatorlar deb ham ataladi. Birinchi avlod robotlari turli xil sanoattarmoklarida kullanadi. Xususan, payvandchi-robot AK,SHdagi Ford avtomobil zavodila va «Djeneral motore» firmasida, YAponiya, AKD1, Frantsiya, SSSR (Tol yatti shaxri)dagi avtomobil zavodlarining kon-veyerlarida ishlayapti. Moskvada shunday kompleks ishlayaptiki, unda robotlar metall kirkadigan stanok-larga massasi 160 tonnagacha bulgan tayyor xom ashyolarni etkazib beradi. Robotlar Rigada tele-radio appara-turani, Saratovda

— xolodil niklarni, Leningradda — asboblari (pribor)larni, Toshkentda — kishlok, xujalik texnikasini tayyorlashda yordam berayapti. Sanoat robotlarining kuchini odamzod kuchidan yuz martalab kup kilib yaratish mumkin. Bunday robotlar uchun zaxarli burlanish, radiatsiya, yukori bosim xavfli emas. Ular na issikdan, na sovukdan «kurkadilar». Robot charchashni bilmaydi va uz vazifasini anik bajaradi, u kechakunduz davomida ishlay olishga kodir. Robotlarni ishlab chikarishga joriy kilish kushimcha xarajatlar talab kilsa ham, u uz-uzini tula oklaydi. Sanoat roboti bir-ikki odamni almashtirib, uch smenada ishlay oladi va ishning sifatini uzgarmasligiga kafolat beradi. Sanoat robotlari sha'niga k.anchadan-k,ancha yomon gaplar aytildi, ularni «kur», «kar» va «kallasi ishlaymaydi» ham deyildi. Bu gaplar xak,, chunki ular fakat uzgarmas muxitda ishlashga kodirdir. Misol: agar kon-veyrda detal tamom bulsa ham u (robot) bari bir ishlay beradi. Agar uning yulida begona ob'ekt bulsa, shunday xolatda u bu ob'ektga urilishi tabiiy xol. SHuning uchun tadbiriy choralar kurib kuyish lozim.

Buning uchun robot ishlayotgan stanok yiguvchi, fiksator va orientir (yunalishni aniklovchi) detallari bilan kushimcha ta'minlanadi.

Birinchi avlod robotlaridan farkli ularok ikkinchi avlod robotlari x,is kilish texnik a'zolar bilan (bularning ichida odamzodnikiga uxshashlari ham bor, ya'ni sezish, eshitish, kurish) jixozlangan. Buning uchun robot anik tuplamli (naborli) kabul kiluvchi va uzatuvchi kurilmalar bilan ta'minlanadi, shu kurulmalardan olingan axborotlar robotlar uchun uz xarakatini turrilashga imkon beradi. Bu axborotlar shuningdek robotlarning tashki olamni (ayrim xollarda odamlarga nisbatan juda tularok) «idrok etishini» ta'minlaydi.

Ikkinchi avlod robotlari «x,is kiluvchi» robotlar yoki moslangan robotlar deyiladi. Bunday robotlarning echadigan asosiy masalasi — tashki muxitdan kelayotgan axborotlar x,ajmini tezda kayta ishlash hamda izoxlab berishdir. Ma'lumki, odamning x,is kilish a'zolari — bu miyaning kushimcha kismi xisoblanadi. Ular yordamida na fakat x.ar xil axborotlar yiriladi, balki kayta ishlanadi, fil trlanadi va shundan sung miya kobigi bulimlariga uzatiladi. Xulosa kilib aytganda, «xis kilish» kobiliyatiga ega bulgan robot (tashki dunyoni sezadigan a'zolari bilan birga) intellekt (akl)ning ayrim elementlarini olishi anik.

Bu avlod robotlarining birinchi vakillaridan biri uziyurar «Lunoxod— 1» apparatidir. Bu apparat avtomatik planetalararo «Luna — 17» stantsiyasi orkali Oyga olib berildi. «Luna — 17» stantsiyasi Erdan 1970 yil 10 noyabrda uchirilib, 1970 yil 17 noyabrda Oyning «YOmriklar dengizi» rayoniga (koordinatlari: 350 garbiy uzaklik va 38° 17' shimoliy kenglik) kundi.

«Lunoxod—1» ning uzi ilmiy asboblari bilan jixozlangan xarakat kiluvchi laboratoriya edi. Kurish organi sifatida ikkita televizion kamera xizmat kilgan. Bu kameralar yurayotgan robotning oldidagi kurinadigan oyning satxi uchastkasi (bir bulagi) tasvirini tinimsiz erga berib turgan. U 10,5 oyda 10540 metr masofani bosib utgan va Erga juda kup oy ponoramasini x,amda boshka ilmiy axborotlarni bergan. «Lunoxod — 1»dagi Frantsiyada yaratilgan yorurlik kaytaruvchi asbob lazer nuri yordamida Er — Oy orali-RINI metrning mayda ulushlari anikligida ulchay olishga imkon berdi. «Lunoxod — 1»ning ketidan boshka lunoxod -robotlarimiz uchirildi. 1975 yilda Marsga amerika kosmik roboti «Viking» kundirildi. Taxmin kilish

mumkinki, uzok planetalarga ham 'birinchi bulib robot -lar (turgan ran takomillashganlari) kadam kuyadi.

Sovet «Lunoxod— 1» i va Amerikaning «Viking» i Erdan boshkarilgan. Bu robotlardan yuz ming va million-lab kilometr narida operatorlar bulgan, ularning signallari orkali robotlar xarakat kilganlar.

Er — Oy va Er — Mars oraliklari uzok bulgani sababli boshkarish signallari birmuncha ushlanib kolar, bunga moe ravishda erdagi operatorlarning reaksiyasi ham shuncha vaktga kech kolar edi. Ular televizor ekranida robotlarning joy uzgartirishi (x,arakati)ni xuddi oldin bulgan vokea kabi kurar edi. SHuning uchun ularning ishi juda ogir edi.

Ikkinchi avlod robotlari asosan inson x.ayotiga xavfli bulgan ishlarni bajarish uchun kulaniladi. Masalan, atom reaktorlari atrofida, kosmik bushlikda, okean chukurliklarida va shunga uxshash joylarda.

Bu robotlar texnik sezish a'zolari bilan ta'min-langan bulishiga karamay, ularni intellektual («akl-li») robotlar katoriga kushib bulmaydi. Robot «sezish a'zolari» yordamida olingan axborotlarni odamga uza-tadi, odam esa olingan axborotlar asosida robotning keyingi xarakatlarini boshkaradi. Masalan, erdan turib operatorlar «Lunoxod— 1» va «Viking» larning x,ara-katini boshkarishgan.

Robot intellektual bulishi uchun u murakkab va doimiy uzgarib turuvchi olamda uz x,olati va yunalishini doimiy ravishda aniklab turishi kerak. Arastu yaratgan mantik nazariyasi ikkinchi avlod robotlari xulki (yurish-tu-rishi)ga etarlicha javob bera olmaydi. Bu erda x^{akikiy} $x^{ayotning}$ murakkab konuniyatlarini (vakt konuniyatlari, makon konuniyatlari, xolat konuniyatlari, sabab va okibat konuniyatlarini) uzida aks ettiradigan maxsus mantik nazariyasi kerak. Fakat shu nazariya tufayli robotga «ong» kiritish va boshkarish mumkin.

